

## **O‘zbek tili taraqqiyotida innovatsion g‘oyalar hamda tashabbuskor yoshlarning o‘rni**

Qarshiboyeva Shoira Sarmisovna  
JDPI akademik litseyi o‘qituvchisi

*Annotatsiya. Maqola O‘zbek tili taraqqiyotida innovatsion g‘oyalar hamda tashabbuskor yoshlarning o‘rni mavzusida bo‘lib asosan, davlat tilini rivojlantirish va uning mavqeini yuksaltirish borasida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** davlat tili, innovatsion g‘oyalar, o‘zbek tili, yangilanayotgan zamon, tashabbuskor yoshlar.*

Ona tili har bir insonning taqdiri, o‘tmishi va kelajagida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Ulug‘ shoirimiz yozganidek:

Tug‘ilgan yurt menga vatan,  
Ona tilim jonimdir.  
Tilu yurtdan ayrilsam gar,  
Shu kun o‘lgan onimdir.

Ha, donolar ona tilidan ayrilishni o‘limga mengzaydilar. Chindan shunday. Bugun dunyodagi kam sonli xalqlar ham o‘z ona tilisi uchun kurashmoqda. Uning yashab qolishini ta‘minlash uchun bor imkoniyatini sarflamoqda. Shunday ekan, biz – shonli tarix, ulug‘ allomalariga ega bo‘lgan o‘zbek xalqi o‘z davlat tilimizni qadrlash, uni rivojlantirish, nufuzini oshirishdek savobli va xayrli ishlarda hamisha faol bo‘lishimiz lozim. Davlat tilini rivojlantirish faqat tilshunoslar, shoir yoki yozuvchilarning ishi emas, balki mana shu yurtda yashab, shu yurtning changini yutib, suvini ichib, tuzini totib yashayotgan har bir insonning vazifasi hisoblanadi. Oddiy dehqon bo‘laylik yoki quruvchi, qaysi soha vakili bo‘lishimizdan qat‘iy nazar, davlat tilining rivoji uchun hissa qo‘shish shu Vatan, shu xalqqa bo‘lgan farzandlik burchimizdir. Bundan yuz yil avval jadid bobolarimiz milliy uyg‘onishni boshlab berishgan va ona tilimizning rivoji borasida ko‘plab amaliy ishlarni qilishgan. Bugun ham davlatimiz milliy yuksalish sari odimlamoqda.

Bugun biz yoshlar yurtimiz ravnaqi ona tilimiz rivoji uchun bor kuch g'uratimiz bilan harakat qilishimiz zarur.

Tilni shunchaki "aloqa vositasi" deguvchilar adashadi. U insonning ichki dunyosi ko'rsatadi, olamni idrok qilishiga yordamlashadi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilab beradi. U dunyoni anglashga yo'l. Til - milliy g'urur. Bugun O'zbekiston yangilanyapti. Milliy yuksalish yo'liga chiqmoqda. Milliy yuksalish davri talablaridan kelib chiqib, ona tilimizning jamiyatdagi o'rnini oshirish bo'yicha katta ishlar boshlandi.

Tilsiz millat bo'lmaydi. Davlat ham. Abdulla Avloniy bejiz "Milliy tilni yo'qatmak – millatning ruhini yo'qatmakdir", demagan. Shuning uchun yuksalaman degan mamlakat borki, millatining ruhini, g'ururini ko'taradi, davlat tilining obro'sini oshiradi. Shunda u haqiqiy taraqqiyot chuqqisini zabt eta oladi. O'zbek tilining ildizlari uzoqlarga qadalgan. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri hisoblanadi. Bu bilan qancha faxrlansak arziydi.

Bugungi kunda har qanday davlatning barqaror taraqqiyoti asosini innovatsion faoliyat tashkil etadi. Har bir soha o'z rivojlanish darajasini ushbu faoliyatga bog'liq ravishda o'zgartirayotgani ham sir emas. Chunki yangilanayotgan zamon, yangi tashabbus va yangi g'oyalarni talab qilmoqda. O'z-o'zidan ayni qonuniyatga proporsional ravishda qarama-qarshi harakat qilish esa biror soha inqilobiga hissa qo'shadi deb aytaolmaymiz.

Tarix ham shundan dalolat beradi, inson o'zining aql-zakovati, innovatsion g'oya va tashabbuslari bilan dastlabki mehnat qurollarini o'ylab topishdan tortib algaritm, nanozarralar, zamonaviy innovatsion kompyuter va boshqa yuqori texnologiyalarni kashf etishgacha bo'lgan murakkab yo'lni bosib o'tdi. Bu mashaqqatli va kimlar uchundir o'z navbatida aql bovar qilmas g'oyalarning haqiqatga aylanishi uchun zamin yaratgan ilm yo'li, butun insoniyat ehtiyojini qondirish, yashayotgan hayotimizni yaxshilash uchun juda ko'plab ixtirolarni taqdim etdi. Ilm-fanning yechilmagan jumboqlari, insoniyat uchun mavhum bo'lgan tushunchalari chegarasiz. Hali hamon insonning yaralishiga o'xshash, oliy

tafakkurning nihoyasi borligi haqidagi faraz mavjud emas. Odamzot yaralganidan to shu kunga qadar bir-biriga hayotiy saboq berib keldi. E'tibor berib qaraydigan bo'lsak har bir yangi, insoniyatni jumbushga keltiruvchi g'oyalarga avval mavjud bo'lgan ixtirolarning asos bo'lganligini payqashimiz mumkin. Odamlar hamisha bir-birining g'oyalarini to'ldirib kelgan va bunda aloqa vositasi bo'lmish til asosiy ro'l o'ynagan. Ibtidoiy jamoalarning yashash tarzi haqida ma'lumotlar keltirilgan manbalarga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning ham o'zaro aloqa vositasi mavjud bo'lganligiga guvoh bo'lamiz. Bundan kelib chiqadiki til ibtidoiy jamoa davridan tortib to bugungi kungacha bo'lgan davrda rivojlanish va shakillanish bosqichlarini o'tab hozirgi ko'rinishiga kelgan. Shu jumladan o'zbek tili ham.

Ona tilimiz chuqur tarixiy ildizlarga ega. Ozarbayjon, usmonli turk, qozoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, chuvash, tatar, boshqird, xakas, yoqut singari 30 dan ortiq turkiy tillardan biri sifatida u qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o'zbek tili singari uzoq taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tgan.

O'zbek tili dunyodagi eng boy, shirali tillardan biri sanaladi. Bu tilda Mahmud Koshg'ariy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Nodira, Ogahiy singari buyuk zotlar barakali ijod qilgan bo'lishsa, Muqumiy, Furqat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy va boshqa ko'plab til va adabiyot fidoiylar uni yangi pog'onalariga olib chiqishdi. O'zbek ma'rifatparvarlarining sa'y-harakatlari bilan XX asrning boshlarida shakllangan hozirgi o'zbek adabiy tili bugun istiqlol sharofati bilan to'lishib, go'zallashib, butun borlig'i bilan ko'z oldimizda namoyon bo'lmoqda. Hozirda u dunyodagi boshqa tillar bilan erkin muomala-munosabatga kirishib, ilm-fan, texnika, badiiy adabiyot tili sifatida tobora rivojlanib bormoqda. Istiqlol arafasi va mustaqillik yillarida o'zbek tilining yanada takomil topishi, rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar eshigi ochib berildi. 1989-yilning 21-oktabr kuni "O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi hozirgi o'zbek adabiy tili taroqqiyotining mustahkam poydevori bo'lish bilan birga, butunlay yangi sahifalarning ochilishiga hamda uning rivojlanishiga sababchi bo'ldi.

Bugungi kunda ham ona tilimiz va adabiyotimizga boʻlgan hurmat, eʼtibor yuksak darajada. Mamlakatimizda barcha sohalar qatorida oʻzbek tilining ham jamiyatdagi oʻrni va nufuzini oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbek tili davlat tili sifatida siyosiy-huquqiy, iqtisodiy-ijtimoiy, maʼnaviy-maʼrifiy hayotimizda faol qoʻllanmoqda, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda.

Davlatimiz rahbarining barcha sohalarda oʻzbek tilidan toʻlaqonli foydalanish, lotin yozuviga asoslangan alifboni takomillashtirish va boshqa millat vakillarining til oʻrganishi uchun sharoitlar yaratishning muhimligi haqidagi fikrlari va maʼnaviy hayotimizni rivojlantirish jumladan, taʼlim-tarbiya ishlarini zamon talablari asosida tashkil etish, madaniyat, sanʼat va adabiyot sohalarini takomillashtirish, kitobxonlik madaniyatini oshirish boʻyicha qabul qilgan oʻnlab farmon va qarorlari oʻzbek tili ravnaqiga bevosita xizmat qilmoqda. Bundan tashqari Oʻzbekiston yaqinda Turkiy tilli davlatlar hamkorligiga aʼzo boʻldi. Bu oʻz navbatida nafaqat oʻzaro iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirishga, balki ona tilimizning xalqaro maqomini yuksaltirishga ham xizmat qiladi. Mamlakatimiz kundan-kunga rivojlanishning yangi bosqichiga koʻtarilmoqda. Biz allaqachon davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yoʻliga oʻtib boʻldik. Va bu yoʻlda bizga innovatsion tashabbuslar, gʻoyalar va Start Up loyihalar yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. “Har bir millatning dunyoda borligini koʻrsatadigan oyinai hayoti – bu uning milliy tili va adabiyotidir”- ulugʻ maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniyning ayni soʻzlarini yodga olishimiz bilan eng birinchi oʻrinda milliy til va adabiyotimiz rivoji uchun chin dildan intilib, ayni soha uchun yangi tashabbus, gʻoya va Start Up loyihalarni amaliyotga tadbiiq qilishimiz kerakligini tushunib yetamiz. Aslini olganda, haqiqatdan ham xalqaro maydonda obroʻ-eʼtibori toboro yuksalib borayotgan Oʻzbekistonimizni dunyoga tarannum etishda ona tilimizning ham oʻrni beqiyos.

Hozirgi zamon talabiga mos ravishda, yoshlarning qiziqishlaridan kelib chiqqan holda internet imkoniyatlaridan to'liq foydalanib, o'zbek tilini keng targ'ib etish, kompyuter dasturlari, elektron lug'atlarni hamda buyuk mutafakir bobokalonlarimizning benazir asarlari asosida kompyuter va mobil telefonlar uchun ilovalar, o'yinlar yaratish hayotining asosiy qismini zamonaviy texnologiyalar egallab ulgurgan yosh avlodni e'tiborsiz qoldirmaydi. Va bu yosh avlodning qalbida ona tiliga bo'lgan sadoqat, mehr va ehtirom tuyg'ularini shakillantiradi. Demak o'zbek tili va adabiyotini rivojlantirishda innovatsion g'oyalar, tashabbuslar hamda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash ayni davr uchun nihoyatda foydali bo'lishi muqarar. Biz tug'ulib o'sgan zamin naqadar muqaddasligini nafaqat o'zimiz balki, butun dunyo his qilishi kerak. Ona diyorimizning har qarich yerini, yaratgan in'om etgan har bir ne'matini shu bilan birga milliy g'ururimizni, iftixorimizni va albatta, ona tilimiz hamda adabiyotimizni e'zozlashimiz, uning rivoji, istiqboli uchun o'z hissamizni qo'shishimiz zarur.

Zero prezidentimiz aytganlaridek, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abduroziq Rafiyev, Nazira G'ulomova (akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun darslik).-T.:Sharq, 2015
2. S.Xolmirzayeva. «Культура и язык: аспекты взаимодействия». Москва, Журнал «European Science» Издательство «Проблемы науки», №6(19), 46-48 стр., 2019 год.
3. M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudov. “Ish yurutish. Amaliy qo'llanma”, “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”. T.Davlat ilmiy nashiryoti, 2015 yil.
4. R. Qo'ng'urov, E. Begmatov, Yo. Tojiev. “Nutq madaniyati va uslubiyyat

asoslari”. T., “O‘qituvchi” nashriyoti, 1992 yil.

5. N. Mahmudov. “O‘qituvchining nutq madaniyati”. T., A. Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007 yil.

6. N. Abdurahmonov, S. Mamajonov. “O‘zbek tili va adabiyoti”. T., “O‘zbekiston” nashriyoti, 1995 yil.